

Gulnoraxon VALIXONOVA,

Andijon qishlog xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti dotsenti Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

E-mail: gulivali@mailru

Tel: 90 0607591

Andijon davlat pedagogika instituti dotsenti, t.f.f.d., S.N.Yusupova taqrizi asosida

NATIONAL DRESSES: TRADITIONALISM AND TRANSFORMATION

Annotation

In this article, the author describes the changes in the clothes and headdresses of the Uzbek and Uyghur peoples, who moved to the territory of present-day Uzbekistan in the second half of the 19th century and lived in a close ethno-cultural environment with the local peoples. changes are analyzed. The priority factors in the formation of clothes are also shown.

Key words: Clothing, evening, traditional, national, territory, gazlama, tailoring, cap, burq, buranji.

НАЦИОНАЛЬНЫЕ ПЛАТЬЯ: ТРАДИЦИОНАЛИЗМ И ТРАНСФОРМАЦИЯ

Аннотация

В данной статье автор описывает изменения в одежде и головных уборах узбекского и уйгурского народов, переселившихся на территорию современного Узбекистана во второй половине XIX века и живших в тесной этнокультурной среде с местными народами. Проанализированы изменения. Также показаны приоритетные факторы формирования одежды.

Ключевые слова: Одежда, вечерняя, традиционная, национальная, территория, газлама, пошив одежды, шапка, бурк, буранджи.

MILLIY KIYIMLAR: AN'ANAVIYLIK VA TRANSFORMATSIYA

Annotatsiya

Mazkur maqolada, muallif tomonidan XIX asr ikkinchi yarmidan hozirgi O'zbekiston hududlariga ko'chib kelib joylashib, mahalliy xalqlar bilan o'zaro yaqin etnomadaniy muhitda yashagan o'zbek va uyg'ur xalqlarining kiyim- kechak, bosh kiyimlarida yuz bergan o'zgarishlar tahlil etilgan. Shuningdek, kiyim kechaklarning shakllanishidagi ustuvor omillar ham ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Kiyim, kechak, an'anaviy, milliy, hudud, gazlama, tikilish, do'ppi, bo'rak, paranji.

Kirish. Ma'lumki, jahon xalqlarining milliy kiyimlari uzoq davom etgan tarixiy jarayonlarda shakllanib, xalqning moddiy farovonligini aks ettiruvchi ko'zgu ham hisoblanadi. Jamiyatdagi iqtisodiy farovonlik, yonma-yon yashovchi etnoslar o'tasidagi aloqalar hamda xalq ijodkorligining uyg'unlashuvi namunasi sifatida namoyon bo'ladi. Kiyim-kechaklar doimiy o'zgarib, rivojlanib, takomillasib borishi jamiyatda kechgan ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy-etnik jarayonlar bilan bevosita bog'liqdir.

An'anaviy kiyimlarni tadqiq etishda ularni erkak, ayol va bola kiyim turlariga bo'lingan. Kiyimlar ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlardan kelib chiqib, yosh va mavsumga qarab tikilgan. Darhaqiqat, Markaziy Osiyoda yashovchi xalqlarning an'anaviy kiyimlari o'zları yashab turgan geografik mintaqaning iqlimi, ya'ni qishning quruq sovuq, yozning jazirama issig'iga mos shakllanib borgan, albatta.

Tadqiqot metodologiyasi. XIX asrning ikkinchi yarmidan ommaviy ravishda hozirgi O'zbekiston hududlariga, asosan Farg'ona vodiysi va Toshkentga ko'chib kelgan sharqiy turkistonlik uyg'ular mahalliy aholi bilan etnomadaniy aloqalarga kirishar ekan, shubhasiz, an'analarini, milliy madaniyatning asosiylari jihatlarini muayyan davr saqlab qolishga erishgan. Buning sabablari dastlab kompakt joylashuv, o'zi bilan birga olib kelgan buyumlari, xali hududning yangi madaniy yutug'ini bilmaslik deb hisoblash mumkin. Biroq hamma vaqt ham mintaqaga hududiga ko'chib kelgan etnik guruhlar milliy madaniyatiga xos bo'lgan (xususan, moddiy madaniyatdagi) jihatlarni saqlanmagan. Transformatsiyaga uchragan milliy madaniyat namunalari orasida moddiy madaniyat ya'ni, uy- joy qurilishi, kiyim -kechaklar asosiy o'rinni tutadi. Yaratilishi murakkab, katta kuch va mablag' talab etuvchi yuqoridaq madaniy namunalar tez fursatlarda o'zgarishlarga uchrashti tabiiy.

Farg'ona vodiysi etnoslarini tadqiq etgan U.Abdullaevning ta'kidlashicha, «olib kelingan madaniyat»ga xos jihatlarning bir qismi o'sha davrlardayoq mahalliy aholi tomonidan qabul qilinmadidi. Boshqa bir qismi esa, mahalliy an'analar bilan aralashib, ohr oqibat uning tarkibiga singib ketdi. Shubhasiz, bu jarayon xalq milliy kiyimlarda ham sodir bo'ldi[1.99].

Tahsil va natijalar. Avvalo shuni ta'kidlash joizki, «ommaviy migratsiyasi» arafasidayoq sharqiy turkistonlik uyg'urlarning an'anaviy-milliy kiyimlarda bir qator o'zgarishlar va yangiliklar kuzatiladi. Buning sabablari quyidagilar bilan bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida:

- Xitoy bosqini;
- o'zaro yaqin yashashgan xitoyliklar va dunganlarning sharqiy turkistonliklar madaniyatiga, xususan kiyim-kechaklariga ta'siri;

- bu davrga kelib uyg'ur aholisi katta qismining vodiylari o'zbeklari orasida aralash yashaganlidir.

Shu sababdan bevosita mahalliy xalqlar ta'sirida kiyimlarda, mato va tikilish uslublarida o'zgarishlar yuz bera boshlagan. Biroq, bir qator an'anaviy kiyimlarni o'rganish shuni ko'rsatmoqdaki, bu hudud aholisining kiyimlari qanchalik uyg'unlashib bormasin, baribir XIX - XX asr boshlarida har bir etnik jamoa milliy kiyimlarda etnosga xos etnik va mahalliy xususiyatlar saqlanib qolangan edi. S.Gubaeva o'z tadqiqotlarida uyg'urlarning an'anaviy liboslari o'zbek, qirg'iz, tojik, qoraqalpoq va boshqa turkiy etnoslarga xos bichilish va tikilish uslubidan katta farq qilmaganligini ta'kidlagan[2.514].

Xalq an'anaviy kiyimlarining shakllanishiga ta'sir etgan asosiy omillar ichida etnos xo'jalik faoliyatining yo'nalishi yetakchi o'rinni tutib, chorvachilik bilan shug'llanuvchilar o'troqlashib, dehqonchilik bilan shug'llanish tobora rivojlangan. Bundan ko'rinish turibdiki, qayta ishlangan teri mahsulotlari, yengil, to'q matolardan cho'ponlar, chorvadorlarga kiyim tayyorlangan bo'lsa, dehqonchilik bilan shug'llangan aholi qismi mehnat turi uchun mos bo'lgan matolardan, tikilishi jihatidan ham qulay bo'lishi kerak.

Milliy kiyimlar haqida so'z ketganda, eng avvalo gazlama va matolar, ularning turlariga etibor qaratish lozim. Aholi kiyimlari uchun ishlatilayotgan ip-gazlama uy sharoitida tayyorlanib, teriga ishlov berilgan charm matolardan ham foydalilanilgan.

Qadim zamonlardayoq Sharqi Turkistonning Xo'tan, Turfon, Qashqar kabi shaharlaridan nafis gazlama matolar eng ko'p keltirilgan hudud Farg'ona vodiysi hisoblangan. Qashqarda to'qib tayyorlangan matolarning 81 foizi O'rta Osiyoga yuborilgan[3]. Biroq, qadimiylar xitoy manbalarining guvohlik berishicha, «bode» (paxta) gazmoli Farg'ona hukmdorlari tomonidan Sharqi sin sulolasi imperatorlariga jo'natilgan[4].

Mavzuga oid adabitlar tahlili. Tadqiqotlarda qayd etilganidek, XIX asr boshlarida Qashqardan surp, sariq, qora, jigarrang bo'z matosi Farg'ona vodiysiga va shimoliy qirg'izlarga ko'plab keltirilgan. Hunarmandchilik buyumlaridan tashqari jun va teriga talab kuchli bo'lganligi sababli O'rta Osiyoga, uning yirik markazlari hisoblangan Qo'qon va Toshkentga ham olib kelish boshlangan[5].

Qashqar bo'zi (dabi), paxtadan xonaki tayyorlangan (barang), xitoy ipagidan tayyorlangan tovor(tovar-ipak mato), yarim ipak va biroz qo'polroq zarbof (parcha), to'q ko'k, yo'l-yo'l (las) mato vodiylari aholisi orasida juda mashhur bo'lgan. Qo'qon, Marg'ilon, Namangan, Xo'jandda to'qib tayyorlangan shoyi, shoyiga o'hshab to'qilgan gulbara, beqasam, olachalar Sharqi Turkiston shaharlarida ancha haridorgir edi[6]. Uyg'urlarda tomonidan to'qib tayyorlangan matolarning asosiy qismi paxtadan bo'lgan. Qashqarda esa, parcha va atlas kabi qimmatbaho matolar ko'proq to'qib, savdo qilingan. Ayollar uchun mo'ljallangan bayram liboslarini Xo'tan, Andijon, Marg'ilonda tayyorlangan rang-barang shoyilardan tikish urf bo'lgan[7].

Uyg'ur xalqi an'anaviy kiyimlarida ikki muhim jihat - mato va tikilish uslubi o'ziga xoslikni ifoda etgan. Erkaklar an'anaviy kiyimlarining o'ziga xosligini bezaklari va yoqa tuzilishida ko'rish mumkin. Erkaklar an'anaviy kiyimlarining oldi qismi ochiq va yopiq turlari, yengi keng va uzun, bo'y esa tizzadan kaltaroq(yoshlarga mos) va tizzadan pastroq(keksa) ko'rinishlarda tikilgan. Bunday erkak ko'ylaklari tasma bilan bezatilib, «tunikanusxa» deb nomlangan. Kiftaki nusxa ko'ylaklar xo'ja, to'ra va saidlar orasida keng tarqalgan bo'lib, «mullacha ko'ylak» nomi bilan ham atalgan[8].

O'rta Osiyo xalqlarining «tunikanusxa» bichimidagi an'anaviy kiyimlari evolyusiyasini tadqiq qilgan O.A.Suxareva: «Farg'ona vodiysi, Qirg'iziston, Sharqi Turkiston va Pomir oldi hududlarini o'z ichiga olgan madaniy-tarixiy hududda yashovchi xalqlarning kiyimlaridagi tabaqalanish (differensiyalashuv) jarayoni eng avvalo an'anaviy kiyimlar jinsga qarab ajralganligida - erkaklar uchun oldi ochiq holatdagi, xotin-qizlar uchun esa oldi yopiq bichimdagagi ko'ylak paydo bo'lganligida»[9] deb ta'kidlaydi.

Aholi kiyimlarini qiyosiy o'rgangan R.Ya.Rassudovaning ta'kidlashicha, XIX asrning oxirlariga kelib, ushbu nusxadagi ko'ylaklar bichimida qator o'zgarishlar yuz berdi. Bu o'zgarishlar avvalo ko'ylak bichimi kalta va tor, yelkaning ko'ndalang kesimi (yoqani) ozroq dumaloqlashganida ko'rindi[10].

Transformatsiyaga uchragan kiyimlar avvalo ust va bosh kiyimlar bo'lib, Turkistonning har ikki qismida erkaklarning asosiy ommalashgan kiyimi «yaktak» (yextak) hisoblangan. Ayni davrda yaktak barcha aholining asosiy ustki kiyimi bo'lib, oq va ochroq rangdagi bo'z yoki surp matolardan tikilgan. Etnolog olim U.Abdullaevning ta'kidlashicha, XX asr boshlarida yaktakning old qismini uchburchak shaklda ochib, beliga belbog' bog'lash rusum bo'ldi. Bu paytda asosan muslimmon aholi uchun yaktak erkaklarning ichki kiyimi vazifasini ham o'tagan. Erkaklarning yengil ust kiyimlari ichida «qozoqi yoqa», «no'g'ay yoqa» nusxalar ham paydo bo'ladi. Mazkur ko'rinishdagi ko'ylaklar dastlab qozoq va tatarlarda urf bo'lib, keyinchalik esa yonma-yon yashovchi mahalliy (asosan turkiy) xalqlar, xususan uyg'urlar orasida ham tarqalgan[11].

Ayol va qizlar ko'ylaklari, asosan, yoshi va ijtimoiy holatiga qarab tikilib tayyorlangan. Ular bir-biridan bichimi jihatidan kam farq qilgan. Odatta, uyg'ur ayollar ko'ylaklari uzun bo'lmagan. Bu haqida yevropalik sayyoh Robert Sha ham o'z sayyohatlarida qashqarlik ayollarning ko'ylaklari juda uzun emas, shalvorli(lozimi) ozroq ko'rini turgan deb, o'zining sayyohat esdaliklarida qayd etadi[12].

Bu fikrlarni uyg'ur milliy kiyimlarini maxsus tadqiq etib, tafsiflagan uyg'ur olimi Islomjon Qosimiy ham tasdiqlab, qashqarlik ayollar ko'ylagi kaltaroq bo'lib, shalvorlari tasmali bo'lib, ko'rini turgan[13.39] deb ta'kidlaydi. Ko'proq ayollar kiyimlariga e'tibor qaratgan tadqiqotchi hududiy emas, balki umumiyyat tafsif va izoh bergen.

Umuman, ayollar ko'ylaklari rangi va matosi bilan bir-biridan ajralib turgan. Masalan, keksa uyg'ur ayollar yorqin rangli va guldor bo'lmagan, oddiy bo'z yoki surx matosidan tikilgan «to'g'ri ko'ylak», yosh qiz-juvonlar orasida esa yoqani keng va ko'rkam «qaytarma yoqa» urf bo'lgan. Keyinchalik mahalliy xotin-qizlarning zamonaviy rusumdag'i burmacha ko'ylagi tarqaldi. XX asrning 60-yillarida xotin-qizlar kiyimlarida bir qadar modernizatsiya jarayoni kechadi, natijada ayollar orasida «xitoycha ko'ylak» va «yevropacha rusum»dagi ko'ylaklar urfga kiradi[14]. Umuman, turg'un o'rnashgan uyg'ur aholisi milliy kiyim-kechaklari mahalliy an'analar ta'sirida o'zgarishga uchray boshlangan. Bu uyg'ur ayollarining bosh kiyimlari, chopon va kamzullarida yanada yaqqol sezildi. Ko'ylak ustidan kamzul yoki nimcha kiyish ko'plab xalqlarga xos bo'lgan. Uyg'ur ayollar orasida «qashqarcha tovar»dan kamzul anche ommaviy edi. Albatta, kamzullarning bir qancha turlari bo'lib - paxtalik kamzul, avra kamzul, baxmal kamzullar mavsumga qarab kiyilgan. Kamzullar kimxbob, duxoba, tovor kabi matolardan tikilib, unga izmat-tugma qadalgan. Uyg'urcha kamzullarini tugma va tasmasi yonboshdan qadalgan, keyinchalik bu rusumdan qoldi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, hududda hunarmandchilikning, ayniqsa to'quvchilik va tikuvchilikning rivojlanishi, uning etnoslar va madaniyatlararo ta'siri kiyim-kechaklarda ko'proq namoyon bo'ldi.

An'anaviy kiyimlar orasida to'n va chopon barcha turkiy xalqlarga xosdir. Chopon qadimiylar kiyim bo'lib, uni ayollar ham kiyishgan. Uning bezakli va tasmalilari, bezaksiz, tugmasizlari ham bor. Qashqarliklar choponlarining ko'krak qismiga naqsh bezak yoki tasma qo'shib tikilgan. G'uljada tikilgan choponlar ham o'zining bezaklari bilan boshqalardan ajralib turardi. Sayohatchi olim N. M. Prejevalskiy, qashqarlik ayollar mavsumga qarab ikkitagacha chopon kiyiganiga, guvoh bo'lganini yozadi[15]. Ustki kiyim hisoblangan chopon uzun bo'lib, odatta ayollar chopon ustidan belbog' bog'lamaydi. Ayollar choponlari huddi kamzul kabi qimmatbaho matodan yoki «qashqarcha tovar»dan tikilgan.

Mavsumiy qishki kiyim hisoblangan to'nning ham bir qancha turlari mayjud. Avra to'n, qora to'n nusxalari ommalashgan edi. Ko'pincha to'n iborasi o'rnida chopon iborasi ishlataladi. Farg'ona vodiysida yashayotgan qashqar xo'jalari hamisha qora to'n kiyigan va bu kiyim ularning jamiyatdagi mavqeini ham ifodalagan[16]. Erkaklarning belbog'i salobat va jamiyatdagi mavqeni ifodalash bilan birga katmon vazifasini ham bajargan. Shu sabab badavlat uyg'urlar ikki - uchtagacha belbog' bog'laganlar.

Bosh kiyim, avvalo, xalqlarning yuksak madaniyatidan boxabar etuvchi jihat hisoblanadi. Bosh kiyimlar ham mavsumga, jins va yoshga, hamda ijtimoiy mavqeiga qarab kiyilgan. Keng tarqalgan do'ppi barcha yosh va jinsdagilar uchun asosiy bosh kiyimi hisoblangan. Erkaklar do'ppilar bir-birlaridan tuzilishi, tikilishi, gul-naqshlari bilan farq qilib, Qashqar va G'ulja do'ppi nusxalari Farg'ona vodiysida tayyorlangan do'ppilariga deyarli o'xshash bo'lgan. Toshkent, Marg'ilon, Namangan, Qo'qon do'ppi nusxalari g'arbiy va sharqiy mintaqalardagi barcha etnik jamoalarda keng tarqalgan bo'lib, uyg'urlar orasida ilgaridan vodiya tayyorlangan do'ppilar mashhur edi[17]. Qashqarda erkak do'ppilar oq, qora, to'q ko'k rangdagi las, baxmal

matolaridan tikilgan. Tikilish va tayyorlash uslubiga ko'ra, vodiyya tayyorlangan do'ppilar amalda bir xil bo'lgan. Sharqiy turkistonlik uyg'urlar bayram liboslari ichida «poshsho do'ppi» deb atalgan bosh kiyim alohida o'rinn egallaydi. Bunday do'ppilar vodiyya tayyorlangan do'ppilardan tepa qismining baland va kengligi bilan ajralib turgan. Hatto, Farg'onada yashab turgan uyg'urlar o'tgan asrning 60-yillarigacha «poshsho do'ppi»larini qadrlab kiyishgan. Ba'zan erkaklarida ham to'q ko'k rangdagi baxmal yoki guldar, dumaloq shakldagi nusxalari uchraydi[18]. Qashqar va Farg'ona vodiyisida do'ppilarga bodom yoki qalampir nusxasi oq rangdagi ipak bilan tikilgan. Xuddi shunday ko'rinishdagi oq ipak bilan tikilgan do'ppilarni Xo'tan va Qashqar erkaklari kiyishgan[19.17]. Shunga o'xshash «tus do'ppi»(chust do'ppi)lar Turkistonning har ikki mintaqasida urfga kirgan edi[20.146]. Bundan tashqari, chorvador qirg'izlarning oq kigiz qalpoolarini, yana ko'plab teridan tayyorlangan bosh kiyimlarini XX asrning boshlarida qirg'izlar bilan aralash yashovchi uyg'urlarida ham uchragan.

Qishki issiq bosh kiyim «bo'rak» ancha qadimi hisoblanadi. «Devoni lug'otit turk» asarida «bo'rak - qalpoq bosh kiyim» ekanligi aytilgan[21]. Turkiy xalqlari orasidagi mashhur “Boshsiz - bo'rak bo'lmas, totsiz - turk bo'lmas” maqoli bo'rak(bosh kiyim)ning turkiylar uchun qadrli ekanini ifodalagan. Bo'rnning ikki xili - do'ppisimon va telpak ko'rinishidagi nusxalari bo'lib, uni tikishda hayvon terisi va mo'ynasi ishlatilgan[22].

Xotin-qizlar orasida ayni «paranji» atamasi mavjud bo'lmasada, musulmonlarga xos bo'lмаган yuzini ochib yurgan deb aytilish ham to'g'ri emas. Ular chimmatta o'xshagan «oq pija» bilan yuzini yopgan. Faqat yuzni to'sgan «pija»lar paranji-chachvonga qisman o'xshab, oq rangli shol ro'molni ham eslatadi. Tadqiqotchi L.A.Chvirning qayd etishicha, Qashqarda «oypija», «oqpija», Yorkent va Oqsuda «lachak», Turfonda «chimbat» deb nomlangan yopinchiq urf bo'lsa, G'ulja, Kuchor, Xami kabi joylarda ayollar yuzini yopishi majbur bo'lмаган. Keyinroq, Farg'ona vodiyisiga ko'chib o'tar ekanlar mahalliy musulmon aholi, asosan, o'zbeklar ta'siriga tushgach paranji-chimmat yopinishni odat qiladilar.

Xulosa va takliflar. Qisqacha aytganda, uyg'ur va o'zbek aholi kiyim-kechaklari orasida farq katta emas. Kiyimlar va matolarning uyg'urcha nomlarining o'zbekchadan katta farq qilmaganligi, masalan, oypija(paraji), chumbat (chimmat), kimxob, shoyi, do'ppi deb nomlanganligi ham ularning o'zagi bir ekanligini bildiradi.

Xullas, uyg'ur aholining milliy kiyim-boshlarida hududiy xususiyatlar ko'proq kuzatilgan. Yangi ijtimoiy – ma'naviy muhit, turli millatlar ta'sirida moddiy madaniyatning ushbu yo'nalishida transformatsiya jarayoni jadal kechdi.

ADABIYOTLAR

1. Абдуллаев У. Фаргона водийсида этнослараро жараёнлар. –Тошкент, Янги аср авлоди, 2005.
2. Губаева С. С. Губаева С. С. Население Ферганской долины в конце XIX – начале XX в (Этнокультурные процессы). – Ташкент: Фан, 1991.
3. Чыврь Л. А. Об изучение художественных ремеслов уйголов// Восточный Туркестан и Среднея Азия. – М: Наука, 1984.
4. Матбобоев Б. Қадимги Фаргона ахолисининг кийим-бошлари тарихига доир (археологик материаллар асосида) // Ўзбекистон этнологияси: янгича қарашлар ва ёндашувлар. –Тошкент, 2004.
5. Сухарева О.А. Опыт анализа покровов традиционной «туникаобразной» среднеазиатской одежды в плане их истории и эволюции // Костюм народов Средней Азии.-М: Наука,1979.
6. Рассудова Р. Я. Сравнительная характеристика мужской одежды населения Ферганско-Ташкентского региона (XIX–XX вв) //Традиционная одежда народов Средней Азии и Казахстана. – М.: Наука,1989.
7. Махова Е. И. Некоторые элементы киргизского национального костюма // Костюм народов Средней Азии. – М.:Наука,1979.
8. Валихонов Ч. Ч. Собрание сочинений в пяти томах. Том II. – Алма-Ата: АН КазССР, 1962.
9. Чыврь Л. А. Уйгуры Восточного Туркестана и соседние народы в конце XIX– началье XX в. – М.:1990.
10. Рассудова Р. Я. Сравнительная характеристика мужской одежды населения Ферганско-Ташкентского региона (XIX–XX вв) //Традиционная одежда народов Средней Азии и Казахстана. – М.: Наука,1989.
11. Ша Р. Очерки Верхней Татарии, Яркенда и Кашигара. – СПб., 1872.
12. Касимий И. Уйгурский национальный костюм. –Алматы: Наш мир, 1996.
13. Пржевальский Н. М. Этнографическое изучение уйголов в 70–80–х годах XIX века // Этнографическое изучение уйголов Восточного Туркестана русскими путешественниками второй половины XIX века. – Алма–Ата, 1975.
14. Захарова И. В. Материальная культура уйголов Советского Союза / СЭС. Вып. II. – М: 1959.
15. Захарова И. В. Материальная культура уйголов Советского Союза... – С. 275–276.
16. Каримова Р. У. Традиционные художественные ремесла и промыслы уйголов. – Алматы: Дайк-Преес, 2005.
17. Каримова Р. Традиционные художественные ремесла и промыслы уйголов... – С. 146.
18. Махмуд Кошфарий. Девони луготит турк. – Тошкент: 1960. Т. 1.